YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA: ISLOHOT, MUAMMO VA UNING YECHIMLARI

Doniyor Oltinbayev, Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya *Maqolada O‘zbekistonda 2026-2026 yillarda advokatura O‘zbekistonda 2026-2026 yillarda advokatura 2017-2025 yillarda advokatura institutining qayta shakllanish va rivojlanish jarayonlari, huquqiy hamda amaliy o‘zgarishlar tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Adliya, advokatura, Advokatlar palatasi, advokatlik byurosi, advokatlik firmasi, advokatlik qasamyodi, YuMOM, e-advokat.uz, advice.uz,* ***madad.uz, «Mediatsiya», «O‘zbekiston-2026».***

Аннотация: *В статье анализируются процессы реформирования и развития института адвокатуры а также правовые и практические* ***изменения в Узбекистане в 2026-2026 годах.***

Ключевые слова: *Юстиция, адвокатура, Палата адвокатов, адвокатское бюро, адвокатская фирма, адвокатская присяга, ЮМОМ, e-advokat.uz, advice.uz, madad.uz, «Медиация», «Узбекистан-2030».*

Abstract: *The article analyzes the processes of reforming and developing the institution of advocacy, as well as legal and practical changes in Uzbekistan during* ***2026-2026.***

Keywords: *Justice, advocacy, Bar Association, law office, law firm, advocate’s oath, YuMOM, e-advokat.uz, advice.uz, madad.uz, “Mediation”,* ***“Uzbekistan-2026”.***

O‘zbekistonda 2026-yildan e’tiboran advokatura sohasini rivojlantirishning yangi bosqichi boshlandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026- yil 12-maydagi «Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5441-sonli Farmoni [1] sohadagi tub islohotlarga zamin yaratdi. Ushbu hujjatda advokaturaning o‘sha davrdagi holati hamda erishilgan ijobiy natijalar bilan bir

qatorda, mavjud muammolarni bartaraf etishning aniq yo‘nalishlari belgilab berildi. Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida sohani tartibga soluvchi qonunchilik va normativ-huquqiy bazaga kiritilgan o‘zgartish hamda qo‘shimchalar advokatura tizimidagi izchil va bosqichma-bosqich islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Advokatlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik shaxslarni tayyorlash va malakasini oshirish markazi (YuMOM) nafaqat adliya xodimlari, balki advokatlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishda ham muhim o‘rin tutmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentabrdagi 544-sonli qaroriga [2] muvofiq, markazda yuridik bilim talab etiladigan turli soha mutaxassislari, shu jumladan advokatlar hamda mediatorlarni o‘qitish tartibi belgilandi. Ayniqsa, 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan «Mediatsiya to‘g‘risida»gi Qonun advokatura sohasining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Xalqaro tajriba asosida advokatlar uchun o‘z ehtiyojlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda malaka oshirish shakllarini erkin tanlashning qulay va moslashuvchan mexanizmi shakllantirildi [3].

2017-2024-yillar davomida Advokatlar palatasining faoliyatida hamda advokatlik amaliyotida sezilarli va ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Jumladan, advokatlarga sud binolariga aloqa vositalari, noutbuk va boshqa elektron qurilmalarni hech qanday cheklovlarsiz olib kirish huquqi berildi. Shuningdek, malaka imtihonlarining adolatli hamda shaffof o‘tishini ta’minlash maqsadida jarayonlarni real vaqt rejimida onlayn translyatsiya qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, advokatlarning o‘z himoyasidagi shaxslar bilan uchrashuvlari begona shaxslar ishtirokisiz hamda video yoki audiokuzatuv qurilmalarisiz maxsus xonalarda xoli o‘tkazilishi qonuniy tartibda kafolatlandi.

2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi [4] esa sud-huquq sohasini chuqur isloh qilish bilan bir qatorda advokatura institutining roli va salohiyatini tubdan kuchaytirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Olim M.Rustambayevning ta’kidlashicha, advokatlarning jinoyat ishlari bo‘yicha ishtirok

etish huquqlari ancha kengayib, ular sud jarayonida dalillarni to‘plashda to‘laqonli va mustaqil isbotlovchi subyekt sifatida qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldi [5].

2019-yil boshida O‘zbekiston aholisi soniga nisbatan advokatlar ulushi juda past darajada bo‘lgan. Xususan, 2019-yilda mamlakat bo‘yicha bor-yo‘g‘i 3,9 ming nafar advokat ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2010-2020-yillar oralig‘ida ularning sonida sezilarli o‘sish kuzatilmadi. Buning natijasida respublika bo‘yicha o‘rtacha har 8,6 ming kishiga bir nafar advokat to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, ayrim hududlarda ushbu ko‘rsatkich 12 mingdan 20 ming kishigacha bo‘lgan nisbatni tashkil etgan [6].

2019-yil 13-dekabrda Prezidentimizning PQ-4551-sonli qarori [7] qabul qilinishi, advokatura institutini tubdan isloh qilish jarayonida muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, «Bepul yuridik yordam to‘g‘risida»gi qonun loyihasi, 2023-yil 16-iyunda esa «Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida»gi 848-sonli qonuni [8] ishlab chiqildi. Mazkur Qonun bilan davlat hisobidan aholiga bepul yuridik yordam olish imkoniyatlari yaratildi. 2023-yil yakunlariga kelib, mamlakatda advokatlar soni 5377 nafarga yetib, ularning o‘rtacha yoshi 50 yosh atrofida egaligini ko‘rsatdi [9].

Qabul qilingan muhim qonunosti hujjatlari natijasida advokatlar va advokatlik tuzilmalari soni tizimli ravishda oshib bordi. Xususan, 2016-yilda advokatlarning umumiy soni 3 872 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 7 000 ga yaqinlashdi (2024-yil o‘rtalaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, advokatlar soni 6 054 tani, advokatlik byurolari 3 306 tani, advokatlik firmalari 593 tani hamda advokatlik hay’atlari 91 tani tashkil etgan). Sohadagi yana bir muhim huquqiy o‘zgarishlardan biri sifatida advokat faoliyatiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmasligi qat’iy belgilandi, jumladan, advokat so‘roviga o‘z vaqtida javob bermagan mansabdor shaxslarni advokatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga murojaati asosida ma’muriy javobgarlikka tortish tartibi joriy etildi.

Hukumatning 2022-yil 5-avgustdagi 432-sonli qarori [10] asosida «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom qabul qilindi. Nizomga asosan, nomzodga litsenziya berish

to‘g‘risida qaror qabul qilingan taqdirda, talabgorga 24/7 formatda xabarnoma yuborilmoqda [11].

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-avgustdagi O‘RQ-862-sonli Qonuni bilan «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunning 3-1-moddasiga kiritilgan o‘zgartishlar advokatura institutini tubdan isloh qilishga zamin yaratdi. Yangi tartibga ko‘ra, advokatlik litsenziyasiga ega bo‘lish uchun nomzodlardan advokatlik tuzilmasida kamida uch oy davomida stajirovka o‘tash hamda malaka imtihonini topshirish talab etiladi (ilgari yuridik mutaxassislik bo‘yicha kamida ikki yillik ish staji talab etilar edi). Shuningdek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIV bobi 141 va 142-moddalarida [12] ham advokatlik faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari yanada mustahkamlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-sonli buyrug‘i [13] bilan 33 banddan iborat «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat stajyor advokatlarning faoliyatiga muayyan yengillik va mustaqillik berganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, stajyor tomonidan topshirilishi talab etiladigan hujjatlar soni 4 taga qisqartirilib, stajirovka jarayoni to‘liqlicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-263-sonli qarori [14] asosida advokatura tizimini raqamlashtirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilanib, ularni amaliyotga tatbiq etish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Xususan, ushbu hujjatga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan e’tiboran davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatadigan advokatlarni jalb etish mexanizmi fully elektron tizim orqali, inson omilisiz va tasodifiy tanlash usulida amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi. Advokatura institutidagi ushbu islohotlar 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan «Harakatlar strategiyasi», 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan «Taraqqiyot strategiyasi» hamda «O‘zbekiston - 2030»

strategiyalarida belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda advokatura institutining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini oshirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari hamda amaliy choralar hayotga tatbiq etildi. Advokatura sohasiga ko‘rsatilayotgan bunday e’tibor aholiga taklif etilayotgan yuridik xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, tizimda hanuzgacha muayyan muammolar va o‘z yechimini kutayotgan tizimli masalalar saqlanib qolmoqda, xususan:

Birinchidan, bugungi kunda aholi ko‘rsatilayotgan ayrim advokatlik xizmatlarining sifati va mutaxassislarning malaka darajasidan doim ham qoniqmaydi, natijada sarflangan vaqt, moddiy resurs hamda e’tirozlar bilan bog‘liq holatlar ko‘p uchramoqda. Shu sababli, mijozlar o‘zlari murojaat qilayotgan advokatning bilimi va amaliy tajribasi haqida oldindan aniq ma’lumotga ega bo‘lishni istaydilar. Aholiga qulaylik yaratish va xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish maqsadida **«e-advokat.uz»** yuridik yordam ko‘rsatish axborot tizimida advokatlarning ochiq va shaffof reytingini yuritish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilikka muvofiq, yuridik xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish maqsadida advokatlar har uch yilda malaka oshirish kurslarida qatnashishi shartligi belgilangan. Biroq ushbu o‘quv mashg‘ulotlarining faqat poytaxtdagi Adliya vazirligi huzuridagi o‘quv markazida o‘tkazilishi hamda mintaqaviy filiallarning mavjud emasligi hududlardagi advokatlar uchun muayyan qiyinchiliklarni tug‘dirmoqda. Xususan, treningni tamomlash uchun advokatlar ikki haftadan bir oy muddatgacha o‘z faoliyati va mijozlaridan uzilishga majbur bo‘layotgani mijozlar uchun ham ortiqcha noqulaylik va vaqt yo‘qotilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, malaka oshirish muddatlari va shaklini advokatning ish tajribasi va stajiga mutanosib ravishda belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, advokatlik faoliyatini boshlash istagida bo‘lgan shaxslar litsenziya olish uchun

malaka imtihonidan o‘tolmagan taqdirda, uni qayta topshirish muddati olti oy etib belgilangani perpektiv kadrlar va ularning moddiy ta’minotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, boshqa sohalarga o‘tib ketishiga majbur qilmoqda.

Uchinchidan, OTM yuridik fakultetlarning iqtidorli bitiruvchilari o‘qishni tugatgach, bir yil mobaynida boshqa davlat organlaridan ish takliflarini olib, faoliyatini o‘sha yerda davom ettirmoqda. Bu holat advokatura tizimida malakali va salohiyatli kadrlar zaxirasini shakllantirishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, advokatlik kasbini tanlash va ushbu sohada faoliyat yuritish istagida bo‘lgan yosh mutaxassislar uchun universitetning yakuniy bosqichida, ya’ni so‘nggi kurslarda olti oylik maxsus tayyorlov dasturini joriy etish amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, «Advokatura to‘g‘risida»gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq, advokatlik xizmati uchun to‘lov miqdori ishonch bildiruvchi shaxs va advokat o‘rtasida erkin shartnoma asosida belgilanadi. Biroq amaliyotda ko‘plab advokatlik tuzilmalarida xizmat haqlarining rasmiy tariflari (narxlar ro‘yxati) mavjud emas yoki ular mijozlarga ochiq taqdim etilmaydi. Buning oqibatida ko‘pincha sud jarayonlari yakunlangunga qadar xizmat narxi asossiz ravishda oshib borishi holatlari kuzatilmoqda. Shu sababli, sohada shaffoflikni ta’minlash hamda ishonch bildiruvchilar va advokatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida advokatlik xizmatlarining indikativ (taxminiy) narxlarini oldindan e’lon qilish yoki mijozlarga ma’lumot tariqasida taqdim etish amaliyotini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, hozirda xorijda mehnat qilayotgan hamda ta’lim olayotgan millionlab yurtdoshlarimizning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida advokat Shtat birligini joriy etish hamda har bir elchixonani kamida bittadan malakali advokat bilan ta’minlash amaliyotini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, bugungi kunda **«e-advokat.uz»** yuridik yordam ko‘rsatish axborot tizimi hamda **«advice.uz»** va **«madad.uz»** platformalari orqali aholiga

bepul huquqiy yordam ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, aksariyat fuqarolar ushbu imkoniyatlardan yetarlicha xabardor emas. Shu sababli, aholining huquqiy savodxonligini oshirish va mazkur manbalarni keng ommalashtirish maqsadida shahar va tuman markazlaridagi yirik reklama bilbordlarida hamda ijtimoiy tarmoqlarda sifatli targ‘ibot materiallarini davriy ravishda yoritib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 12-maydagi «Advokatura institutining samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5441 sonli farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-sentabrdagi «Yuridik sohaga oid bilim talab etiladigan mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning zamonaviy tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 544-sonli qarori.

3.https://yuz.uz/uz/news/yurtimizda-yuristlar-malakasiqandayoshiradi?view=mahsulot-xitoynikini-bolsa-unda-kafolat-muddati-bolmaydimi

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan «2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli farmoni.

5.Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati: darslik / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. TDYI. Toshkent: O‘FMJN, 2012. 384 bet

6.https://norma.uz/nashi_obzori/advokatura_kakovy_problemy_i_kak_ih_reshat

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi «Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini

kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4551-sonli qarori.

8.O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-848-sonli qonuni.

9.https://e-advokat.uz/

10.Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi «Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 432-sonli qarori.

11.https://yuz.uz/uz/news/advokatlik-faoliyatini-litsenziyalash-soddalashtirildi

12.I.Bekov, V., Davlyatov Advokatura institutining konstitutsiyaviy asoslari: o‘quv qo‘llanma / I. Bekov, V. Davlyatov. T.: TDYU nashriyoti, 2023. 44 b.

13.O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi «Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 10-mh-sonli buyrug‘i. https://lex.uz/uz/docs/-6951674

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 30-maydagi «Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-263-sonli qarori.